



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 128 sahifa,
2-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili	16
Salim Doniyorov	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish	21
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
Yunusov Dilshod Raxmatovich	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
Aliqulova Habiba Bahranovna	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri	36
Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli	41
Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
Asqarova Ma'mura Sadriddinovna	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati	59
Atajanova Xurjon Pirnazar qizi	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend	64
Murtozayeva Nigora Murtoza qizi	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari	69
N. A. Musayeva	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari	76
Odiljonova Kamola Abduvosit qizi	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching	81
Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari	84
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati	87
Raxmanova Dilnoza Farmanovna	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari	90
Shamshaddinova Saodat Saparbayevna	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti	93
Shamuratov Asqar Abdullayevich	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
Sobitov Otabek	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismaniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
Xasanova Sarvinoz To'liqinjon qizi	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi	118
Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения	123
Хамидова Гулноза Турсунбой кизи	

ADAPTIV SPORTNING INKLYUZIV TA'LIM TIZIMIDA ALOHIDA TA'LIMGAGA EHTIYOJI BO'LGAN O'QUVCHILARNING JISMONIY VA FUNKSIONAL RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Xasanova Sarvinoz To'liqinjon qizi

O'zbekiston Davlat sport akademiyasi huzuridagi
Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti 1- kurs doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim tizimida adaptiv sportning alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarning jismoniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati tadqiqot asosida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida adaptiv sport mashg'ulotlarining o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi, harakat faolligi hamda ijtimoiy moslashuviga ta'siri o'rganildi. Pedagogik tajriba natijalari adaptiv sport mashg'ulotlari o'quvchilarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari, harakat koordinatsiyasi va psixologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, inklyuziv ta'lim tizimida adaptiv sport mashg'ulotlarini keng joriy etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: adaptiv sport, inklyuziv ta'lim, alohida ta'lim ehtiyojlari, jismoniy rivojlanish, funksional tayyorgarlik, ijtimoiy integratsiya.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the importance of adaptive sports within the system of inclusive education. The study examines the impact of adaptive sports activities on the physical and functional development of students with special educational needs. The research evaluates indicators such as physical fitness, motor activity, and social adaptation. The results of the pedagogical experiment confirm that adaptive sports have a positive effect on students' physical development, motor coordination, and psychological well-being. Based on the findings, the study substantiates the importance of the widespread implementation of adaptive sports in the inclusive education system.

Key words: adaptive sports, inclusive education, students with special educational needs, physical development, functional fitness, social integration.

Аннотация: В данной статье комплексно рассматривается значение адаптивного спорта в системе инклюзивного образования. Проанализировано влияние занятий адаптивным спортом на физическое и функциональное развитие учащихся с особыми образовательными потребностями. В ходе исследования изучены показатели физической подготовленности, двигательной активности и социальной адаптации учащихся. Результаты педагогического эксперимента подтвердили, что занятия адаптивным спортом оказывают положительное влияние на физическое развитие, координацию движений и психологическое состояние учащихся. На основе полученных результатов обоснована необходимость широкого внедрения адаптивного спорта в систему инклюзивного образования.

Ключевые слова: адаптивный спорт, инклюзивное образование, учащиеся с особыми образовательными потребностями, физическое развитие, функциональная подготовленность, социальная интеграция.

KIRISH

Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Amaldagi qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarda ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, sifatli ta'lim-tarbiya bilan qamrab olish, kasb-hunar o'rgatish, sog'lom tengdoshlari bilan bir qatorda jamiyatda munosib o'rin egallashi, o'z qobiliyat va imkoniyatlarini namoyon eta olishi hamda ma'naviy jihatdan kamol topishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar alohida belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish sohasida mustahkam huquqiy-me'yoriy baza shakllantirilgan. Jumladan, 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'ri-



sida”gi Qonunida ta’lim olish shakllaridan biri sifatida inklyuziv ta’lim alohida qayd etilgan. Ushbu qonunga ko’ra, inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari hamda shaxsning individual imkoniyatlari xilma-xilligini inobatga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan bo’lib, jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo’lgan shaxslarning umumiy ta’lim muhitida ta’lim olishiga sharoit yaratishni nazarda tutadi.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan nizom inklyuziv ta’limni amaliy jihatdan yo’lga qo’yish mexanizmlarini belgilab beradi. Ushbu hujjatlar alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar uchun moslashtirilgan ta’lim sharoitlarini yaratish, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish hamda ijtimoiy-pedagogik qo’llab-quvvatlash xizmatlarini integratsiya qilishni nazarda tutadi.

Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi - barcha bolalar, jumladan alohida ta’lim ehtiyojlariga ega shaxslar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish, ularning jamiyat hayotiga to’laonli integratsiyalashuvini ta’minlash va har tomonlama rivojlanishiga ko’maklashishdan iboratdir. Shu bilan birga, bu tizim kamsitishlarning oldini olish, har bir shaxsning qadr-qimmatini hurmat qilish va individual imkoniyatlarni inobatga olgan holda ta’lim berishni nazarda tutadi.

Hozirgi bosqichda maxsus ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida adaptiv jismoniy tarbiya alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. U nafaqat jismoniy rivojlanishni ta’minlovchi vosita, balki alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning ijtimoiylashuvi, psixofunksional rivojlanishi va hayot sifatini oshirishga xizmat qiluvchi kompleks jarayon sifatida qaraladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda adaptiv jismoniy tarbiya inklyuziv ta’lim amaliyotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilmoqda. Inklyuziv ta’lim tamoyillariga ko’ra, har bir bola jismoniy, aqliy yoki sensor imkoniyatlaridan qat’i nazar, umumiy ta’lim muhitida rivojlanish imkoniyatiga ega bo’lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, adaptiv jismoniy tarbiya ta’lim jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Milliy va xalqaro ilmiy manbalarda adaptiv jismoniy tarbiyaning pedagogik hamda sog’lomlashtiruvchi ahamiyati keng yoritilgan. Xususan, Sherrill C. (2018) adaptiv sport mashg’ulotlari o’quvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishini, balki ijtimoiy integratsiyasini ham ta’minlashini ta’kidlaydi. Haegele J. va Sutherland S. (2021) esa adaptiv sport mashg’ulotlari o’quvchilarning jismoniy faolligini oshirish hamda psixologik holatini yaxshilashga xizmat qilishini asoslab bergan.

S. P. Yevseyev (2019) adaptiv jismoniy tarbiya tizimi alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilarning funksional imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim o’rin tutishini qayd etadi. Ilmiy adabiyotlarda adaptiv jismoniy tarbiya dasturlarini bosqichma-bosqich tashkil etish zarurligi ham alohida ta’kidlangan.

Bir qator tadqiqotchilar (M.X. Mirjamolov, Svetlichnaya, L.B. Sobirova, L.T. Davlatova, Sh. Yusupova) ushbu jarayonni uch bosqichda amalga oshirishni taklif etadilar:

- *birinchi bosqich* - moslashtirilgan jismoniy tarbiya orqali umumiy harakat faoliyatini rivojlantirish;
- *ikkinchi bosqich* - reabilitatsion jismoniy tarbiya orqali funksiyalarni tiklash va korreksiya qilish;
- *uchinchi bosqich* - konstruktiv jismoniy tarbiya orqali mustaqil faoliyat va ijtimoiy moslashuvni mustahkamlash.

Shuningdek, ilmiy manbalarda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o’quvchilar uchun jismoniy faoliyat psixomotor, emotsional va kognitiv rivojlanishni qo’llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaraladi. Guruh shaklidagi mashg’ulotlar esa o’quvchilar o’rtasida ijtimoiy muloqot, hamkorlik va xulq-atvor ko’nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish
- pedagogik kuzatuv
- pedagogik tajriba
- jismoniy tayyorgarlik testlari
- statistik tahlil

Tadqiqot ishlari Toshkent shahridagi inklyuziv ta'lim tashkil etilgan umumta'lim maktablarining jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida olib borildi. Tadqiqotda 20 nafar o'quvchi qatnashdi. 8-9-sinflar.

Ular ikki guruhga ajratildi:

1. Nazorat guruhi – 10 nafar
2. Tajriba guruhi – 10 nafar


Tajriba guruhida adaptiv sport mashg'ulotlari haftasiga 3 marta, 1 oy davomida olib borildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Tadqiqot davomida o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi quyidagi testlar yordamida baholandi:

- 30 metrga yugurish
- joyidan uzunlikka sakrash
- egiluvchanlik testi
- muvozanat testi
- chidamlilik testi

Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.



1-rasm: Tajriba boshlanishidan oldingi jismoniy ko'rsatkichlar



2-rasm: Tajriba yakunidagi jismoniy ko'rsatkichlar



Tadqiqot boshida har ikki guruh o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari deyarli bir xil darajada ekanligi aniqlangan. Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Tadqiqot jarayonida adaptiv sport mashg'ulotlarining samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhlarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari solishtirildi. Nazorat guruhida mashg'ulotlar an'anaviy jismoniy tarbiya metodikasi asosida olib borildi, tajriba guruhida esa adaptiv sport mashg'ulotlari tashkil etildi.

Tadqiqot boshida har ikki guruh o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari deyarli bir xil darajada ekanligi aniqlangan.

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi (tajriba oldi)	Nazorat guruhi (tajriba so'ng)	Tajriba guruhi (tajriba oldi)	Tajriba guruhi (tajriba so'ng)
30 m yugurish (sek)	7.3	7.0	7.3	6.4
Uzunlikka sakrash (sm)	139	145	138	168
Egiluvchanlik (sm)	6	7	6	12
Muvozanat (sek)	10	12	10	18

Olingan natijalar adaptiv sport mashg'ulotlari o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

Adaptiv sport mashg'ulotlari o'quvchilarda:

- harakat koordinatsiyasini rivojlantiradi
- mushak kuchini oshiradi
- chidamlilikni yaxshilaydi
- psixologik barqarorlikni oshiradi

Bundan tashqari adaptiv sport o'quvchilarning ijtimoiy integratsiyasini ham ta'minlaydi.

Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan ham mos keladi. Ko'plab ilmiy tadqiqotlarda adaptiv sport mashg'ulotlari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan.

Adaptiv sport mashg'ulotlari o'quvchilarning jamoaviy faoliyatga jalb qilinishini ta'minlaydi hamda ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Amaliy tavsiyalar:

1. Inklyuziv ta'lim muassasalarida adaptiv sport mashg'ulotlarini keng joriy etish.
2. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarini adaptiv sport metodikasi bo'yicha tayyorlash.
3. Maxsus sport jihozlaridan foydalanish.
4. Adaptiv sport mashg'ulotlarini individual yondashuv asosida tashkil etish

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta'lim tizimida adaptiv sport alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning jismoniy, psixologik hamda ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari adaptiv sport mashg'ulotlari o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi hamda funksional imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam berishini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomil lashtirish chora tadbirlari to'g'risida" PQ-4860-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hu jatlarni tasdiqlash to'g'risida" 638-son qarori. Sherrill C. Adapted Physical Activity. Human Kinetics, 2018.
3. Haegele J., Sutherland S. Inclusive Physical Education. Routledge, 2021.
4. Block M. Inclusive Physical Education. Human Kinetics, 2020.
5. Winnick J., Porretta D. Adapted Physical Education and Sport. Human Kinetics, 2017.
6. Yevseyev S.P. Adaptivnaya fizicheskaya kultura. Moskva, 2019.
7. Adaptiv va sog'lomlashtirish jismoniy tarbiyasi: o'quv-uslubiy qo'lanma / L.B.Sobirova, L.T.Davlatova. – Chirchiq: O'zDJTSU, 2020.
8. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO). (2021). The Role of Inclusive Education in Sustainable Development: A Global Perspective. Paris: UNESCO Publishing. P. 45-62.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.